

TARBIYASI QIYIN VA O`ZLASHTIRISH JARAYONIDA PSIXOLOGIK QIYINCHILIKLARGA UCHRAGAN O`QUVCHILAR BILAN MASHG`ULOTLAR OLIB BORISH

Ochilova Hilola Sayfullayevna

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani MMTB ga qarashli 36-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tarbiyasi qiyin va o'zlashtirish jarayonida psixologik qiyinchiliklarga uchragan o'quvchilar bilan mashg'ulotlar olib borishning samarali usullari yoritilgan. O'quvchilarda uchraydigan xulq-atvor muammolari, emotsional zo'riqish va ta'limdagi qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari tahlil qilingan. Shuningdek, psixologik korreksiya, individual yondashuv va profilaktik mashg'ulotlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiyasi qiyin o'quvchi, psixologik qiyinchilik, korreksion mashg'ulot, motivatsiya, agressivlik, emotsional holat, o'quv faoliyati, psixologik yordam, individual yondashuv, ijtimoiy moslashuv.

KIRISH

Bugungi ta'lim tizimida tarbiyasi qiyin va o'zlashtirish jarayonida psixologik qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilar bilan ishlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday o'quvchilar bilan to'g'ri yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlar ularning ruhiy holatini yaxshilash, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga yordam beradi.

Tarbiyasi qiyin o'quvchilar odatda intizom buzishi, agressiv xatti-harakatlar, darsga qiziqmaslik yoki tengdoshlari bilan nizoga moyilligi bilan ajralib turadi. Ayrim hollarda bu holatlar oilaviy muammolar, e'tiborsizlik, noto'g'ri tarbiya yoki psixologik bosim natijasida yuzaga keladi. O'zlashtirish jarayonidagi psixologik qiyinchiliklar esa diqqatning sustligi, xotira zaifligi, o'ziga ishonchsizlik yoki motivatsiyaning pasayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday o'quvchilar ko'pincha o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qila olmaydi va dars jarayonida passiv bo'lib qoladi.

Bunday o'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Har bir bolaning psixologik holati, qiziqishi va ehtiyojlari inobatga olinishi kerak. O'qituvchi va psixolog o'quvchi bilan ishonchli munosabat o'rnatishi uning ichki muammolarini aniqlashga yordam beradi.

Psixologik mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning emotsional holatini yaxshilash mumkin. Relaksatsiya mashqlari, art-terapiya, o'yin terapiyasi va treninglar bolalardagi stress va ichki zo'riqishni kamaytiradi. Ayniqsa, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar samarali hisoblanadi. Motivatsiyani oshirish ham muhim vazifalardan biridir. O'quvchini rag'batlantirish, uning kichik yutuqlarini ham e'tirof etish o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Bu esa o'quv faoliyatidagi faollikni oshiradi. Guruhiy mashg'ulotlar ham tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashda yaxshi natija beradi. Jamoaviy o'yinlar va treninglar orqali o'quvchilarda hamkorlik, o'zaro hurmat va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari shakllanadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish muhim omillardan biridir. Oiladagi sog'lom psixologik muhit bolaning xulq-atvori va ruhiy holatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ota-onalarga psixologik tavsiyalar berib borish zarur.

Maktab amaliyotchi psixologi o'quvchilarning psixologik holatini muntazam kuzatib borishi, diagnostik ishlar olib borishi va korreksion dasturlar tashkil etishi kerak. Bu esa muammolarni erta aniqlash va samarali yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Ta'lim tizimi – ijtimoiy-genetik mexanizm bo'lib, u ijtimoiy tajribani avloddan-avlodga o'tkazadi va shu orqali shaxsni shakllantirishni ta'minlaydi hamda uning istiqbollarni belgilaydi. Bu tizim odamzod paydo bo'lgan davrlardan buyon amal qilib kelmoqda. Zero, madaniy-ma'naviy boyliklarsiz, ta'lim tizimisiz jamiyat yashay olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim oliy darajadagi ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy institut bo'lib hisoblanadi. Amerikalik olim G.Overstritning ta'kidlashicha, xulq-atvorimiz va xattiharakatlarimiz zamirida biz uchun eng qimmatli bo'lgan orzularimiz yotadi. Kimnidir u yoki bu ko'rinishdagi xatti-harakatlarni bajarishga undashni o'z oldigan vazifa qilib qo'yganlar uchun eng yaxshi maslahat shunday: avvalo o'z suhbatdoshingizni nimanidir qattiq istashga majbur qiling. Kimki buni uddalay olsa, butun dunyoni egallaydi, agar uddalay olmasa, yakkalanib qoladi.

Bolalar nimani istashadi – bu o'qituvchining olidida turgan bosh masala bo'lib hisoblanadi. Agar biz sichqonni tutmoqchi bo'lsak, qopqonga qip-qizil bo'lib pishgan gilosni qo'ymaymiz, balki pishloq bo'lagini qo'yamiz, ya'ni bunda o'z istagimiz va ta'bimizga ko'ra emas, balki kemiruvchilarning ta'bidan kelib chiqib ish yuritamiz. Shuni mudom yodda tutishimiz va anglashimiz lozimki, faqat biz nimani istashimizgina muhim emas, balki bolalar nimani istashlari ham juda muhimdir. Uni sindirishga va qayta qurishga urinmang: u o'z xohish-istaklari uchun aybdor emas. Tarbiyaning tabiatga moslanganligi g'oyasini yodda tuting. O'qituvchining vazifasi – agar pedagogik maqsadlarga mos kelmasa, intilishlarning yo'nalishini o'zgartirish.

Agar biz bolalarning chekmasligini istasag-u, biroq o`quvchini chekish istagi tark etmasa, unga har qancha pand-nasihat qilsangiz ham foydasi bo`lmaydi. Bolalarni qo`rqitish uchun odatda ko`p misol qilib keltiriladigan “nikotindan o`lgan ot” sizga yordam bermaydi. Ammo siz o`quvchingizda musobaqada g`olib bo`lish, futbol jamoasiga qo`shilish yoki sinfdagi bir go`zal qizning nazariga tushish istagi borligini bilib qolsangiz, unga tushuntiringki, chekish bu borada muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga sabab bo`lishi mumkin.

Qiziqishlar va mayllarni hisobga oling. Tushunish – kechirish demakdir, degan hikmat bor. O`quvchini agar o`qituvchi tushunmasa, kim tushunadi? O`quvchilar orasida hech narsaga qiziqmaydigani bo`lmaydi. Bu allaqachon hammamiz uchun ma`lum bo`lgan aksioma bo`lsa ham, hamon biz o`quvchilar qiziqishlarini hisobga olishni o`rganmaganmiz.

O`qish-o`rganish va o`z-o`zini takomillashtirishning kuchli stimuliga nisbatan qiziqish uyg`otishning juda ko`p qo`shimcha vositalari borligini unutmaslik kerak. Shulardan biri bolalarning yorqin obrazlar, va formalarga bo`lgan qiziqishlariga asoslanadi. Intellect hissiy kechinmalar ta`siriga tez tushib qoladi va o`quvchi unga ko`proq ta`sir ko`rsatib turgan xatti-harakatlarni bajarish uchun yo`l va bahona qidira boshlaydi. Qiyin vaziyatlarda shakldan mazmunga, his-tuyg`udan mantiqqa qarab borish kerak bo`ladi. Shunday yo`l tutsangiz bolalarni o`z maqsadlaringizga qiziqtirish imkoniyatingiz katta bo`ladi. O`z g`oyalaringizni dramalashtiring, – deb maslahat beradi D.Karnegi, – ularni samarali va yorqin shaklda etkazing.

O`quvchilaringizni qiziqtiradigan narsalar haqida gapirishga harakat qiling, to`g`rirog`i ishni shundan boshlang. Bolalarning qiziqishlari, fikrlari, baholariga nisbatan hurmat bilan qarang. Mayli, ko`proq bolalar gapirishsin. Ba`zi bir masalalarda sizda ma`lumotlar etishmasligidan cho`chimang, o`quvchilar bir muddat sizning “o`qituvchingiz”ga aylansalar ham mayli. Yodda tuting: sizning maqsadingiz - o`quvchilarning qiziqishlari yo`nalishini tarbiya va didaktik maqsadlarga tomon burish.

O`rtacha odamni butun dunyo bo`yicha o`z ismi boshqa barcha ismlardan ko`ra ko`proq qiziqtiradi. Biz har qancha ta`qiqlab qo`ymaylik, baribir bolalarning devorlarga, partalarga, daraxtlarga ismlar, laqablarni o`yib yozib qo`yganiga ko`zimiz tushadi. Bolalardagi bu kuchli istakni stimul o`rnida qo`llaymiz. Sinf doskasiga, plakatlarga katta-katta harflar bilan alohida ajralib turadigan bolalarning ismlarini yozinglar, deb topshiriq bersangiz, bolalarda sizning predmetingiz, shaxsingizga nisbatan qiziqish paydo bo`lishiga erishishingiz mumkin.

O`quvchining niyatini bilishga harakat qiling. Niyat ehtiyoj asosida paydo bo`ladi. Masalan, o`quvchi fermer bo`lishni niyat qildi deylik. U har kuni xo`jalikda biror bir ish qilishni niyat qiladi. U hamma narsani o`ylab qo`ygan, rejalashtirgan, hatto

vaqt byudjetidan bir qismini shu ish uchun ajratgan. O`ylab ko`ring, agar qo`pol ravishda uning rejalarini buzib qo`ysangiz nima bo`ladi. Agar o`qituvchi o`z ishlarini belgilab qo`ygan bolaga rejalarini o`zgartirib yuboradigan topshiriq bersa, u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shunday – ikki yo`ldan birini tanlash vaziyatiga tushib qolgan o`quvchining xulq-atvorida keskin o`zgarishlar paydo bo`ladi.

O`quvchilarga o`z oldilariga qo`ygan niyatlariga erishishlari uchun yordam berish yo`lini qidiring. Gap shundaki, ko`pincha niyat vaziyatli motivlar ta`sirida vujudga keladi va o`quvchi bu niyatini amalga oshirishi uchun kuchi etish-etmasligi haqida o`ylab ham o`tirmaydi. Hayotda bunday voqealarni tez-tez uchratib turish mumkin. Masalan, o`quvchi onasining zorlanib yalinishlari, ko`z yoshlariga azbaroyi achinganidan o`z xulq-atvorini o`zgartirishga ahd qiladi. Ammo mavjud vaziyat, muhit uning imkoniyatlaridan ko`ra kuchliroq, o`ylagan niyatini amalga oshirish uchun uning kuchi etmaydi. Bergan va`dasining ustidan chiqmaganligi uchun uni ortiqcha tergamang. Yaxshisi uning ko`nglini ko`tarib, unga aniq va kuchi etadigan maqsadlar qo`yishga yordam bering. Agar maqsadlar murakkab va unga erishish uchun uzoq vaqt talab etiladigan bo`lsa, uni amalga oshirish uchun qanday qilib, sekin-asta harakat qilish lozimligini tushuntirib boring.

O`quvchining hurmatga sazovor bo`lish istagini rag`batlantiring. Hurmate`tibor qozonish istagi hamma odamda mavjud bo`ladi. Ko`pgina bolalar bilim uchun emas, balki e`tiborga tushish uchun o`qishga harakat qiladilar. Ularni yuqori darajadagi raqobat muhiti o`ziga tortadi. Agar bu stimul o`quvchi ongida ildiz otib, o`rnishib qolgan bo`lsa va ta`lim jarayoniga ijobiy ta`sir ko`rsatsa, undan to`g`ri foydalanishga harakat qilish kerak.

“Odamlar nazariga tushish” dan umidini uzgan, o`z-o`ziga nisbatan past baho beradigan o`quvchilarga qanday qilib shu “kasallik”ni yuqtirish mumkin? Bu o`rinda turli xildagi hissiy-irodaviy sohalarga murojaat qilishga va turli xildagi nostandart qarorlar qabul qilishga to`g`ri keladi. Masalan, o`quvchiga “dushmanlarini o`ldirish”ga yordam bering. Ko`pgina odamlar o`zida mavjud bo`lgan qo`rquv va irodasizligi tufayli o`z imkoniyatlarini, layoqatlarini namoyish eta olmay qolib ketganliklarini o`quvchiga tushuntiring. Tish doktoriga borib qiynalgandan ko`ra, tishsiz qolgan osonroq emasmi?!

O`quvchini uni cho`chitadigan muhitda yolg`iz qoldirmang, toki u bunday vaziyatda yo`l topishni o`rganib olmaganicha. O`quvchi doska oldida javob berishga qo`rqsa, u bilan yakkama-yakka tarzda mashq qiling. Sizning vazifangiz – o`quvchida o`ziga ishonch hissini paydo qilishga yordam berish. Faqat shundan so`nggina u mustaqil ravishda “dushmanlar bilan jangga” kira olishi mumkin. Shuni unutmangki, xavotirlik darajasi yuqori bo`lgan o`quvchilarning 75% i yangi tanbehlari kundalik

daftardagi yozishmalarni emas, balki, aynan, sizning qo`llab-quvvatlashingizni kutib turadi.

O`quvchi xatti-harakatlari oqibatini ko`rsating. Tadqiqotchi A.Gavrilova turli yoshdagi o`quvchilarga maxsus tuzilgan matnni o`qib, uni davom ettirishni topshiradi. Bu matnda bir bola o`ziga sovg`a sifatida berilgan kuchukcha o`zining oldingi xo`jayinini qo`msayotganligini sezib qoladi. Bu vaziyatda bolaning oldida ikki yo`l – kuchukchani o`z egasiga qaytarish yoki o`zida qoldirish shartidan birini tanlash turibdi. O`quvchilar matnni davom ettirib, bola bu kuchukchani oldingi egasiga qaytaradimi yoki o`zida qoldiradimi, shuni yozishlari kerak edi. Bu tajribada ishtirok etgan o`quvchilarning deyarli hammasi “bola kuchukchani o`zida qoldirishi kerak”, – deb yozishgan. O`quvchilarda qiyin ahvolda qolgan hayvonlargagina emas, hatto odamlarga nisbatan ham hamdardlik bildirish hissi yo`qligi aniqlangan.

Bu nimadan dalolat beradi? Axloqiy jihatdan noqislikni, hissizliknimi? Faqat bunigina emas. Bizning o`quvchilarimiz o`zini bironing o`rniga qo`yib ko`rish, uning kechinmalarini his etishga o`rganmaganlar. Ular o`z xatti-harakatlarining oqibatlari haqida o`ylab ko`rish, unga baho berishga odatlanmaganlar. Agar pedagog vaqtda va ishonarli ravishda o`z o`quvchilarining ko`zini ochib qo`ysa, u o`quvchi xulq-atvorini yaxshi tomonga o`zgartirishning qo`shimcha va samarali stimuliga ega bo`ladi.

Tajribali pedagoglardan biri bilan suhbatlashganimizda, u shunday dedi: “Men Olimjonga hech qanday bilim, malaka, ma`lumot talab etilmaydigan faoliyat turlari haqida bir nechta hayotiy misollar keltirishni taklif etdim. Agar shu topshiriqni bajara olsa, men unga o`z predmetimdan ijobiy baho qo`yishga va`da berdim. Men uchun kutilmaganda Olimjon mening savolimga javob bera olmasligini aytdi. Demak, bizning o`zaro suhbatlarimiz unga ta`sir o`tkazibdi. U darslarda ancha yaxshi natijalar ko`rsata boshladi. Keyinchalik unga e`tibor qaratgan yagona kishi ekanligimni u tan oldi”.

O`quvchining qadr-qimmatini joyiga qo`ying. O`quvchida tashabbuskorlikni hamda unda bor bo`lgan barcha ijobiy fazilatlarni uning qadr-qimmatini joyiga qo`yish orqali rivojlantiring. Agar sharoit shuni talab qilsa, biroz yolg`on ishlatishdan ham qo`rqmang. Chunki aldash – bu kishiga aynan u o`zi haqida o`ylaganlarini gapirish demakdir. Siz ishlatgan bu beozor yolg`on tarbiyalanuvchida yangi kuch-g`ayrat oqimini paydo etishi mumkin. Agar o`quvchilarning yutuqlariga chin dildan xursand bo`la olsangiz, ularni qadrlay olsangiz, albatta, juda yaxshi bo`ladi. Ammo pedagoglarimizning qo`l ostidagilar juda ko`pchilik bo`lganligidan, ba`zan ularning har biri uchun kerakli va betakror so`zni topib aytish qiyin bo`lib qoladi. Bu o`rinda aktyorlik qilishga to`g`ri keladi.

Ko`plab tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, o`quvchilarning qadr-qimmatini e`tirof etish va ularning imkoniyatlariga ishonch bildirish juda katta samara beradi. Nafaqat

bolalar, balki kattalar ham o‘z mehnati va shaxsiy fazilatlari qadrlanishini istaydi. Shu sababli tarbiya jarayonida doimiy tanqid qilishdan ko‘ra, rag‘batlantirish va maqtovdan oqilona foydalanish samaraliroq hisoblanadi. Albatta, bu jarayonda sun‘iy xushomaddan qochib, insondagi ijobiy tomonlarni samimiy tarzda ko‘ra bilish muhimdir. Ana shunda tarbiyalanuvchida o‘ziga bo‘lgan ishonch kuchayadi va unda yaxshi inson bo‘lishga intilish paydo bo‘ladi. D. Karnegi ham: “Boshqalardan kutgan narsangizni avvalo o‘zingiz ularga bering”, deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, arziyas kamchiliklarga ortiqcha e’tibor qaratish va har bir mayda xato uchun tanbeh berishdan saqlanish kerak. O‘quvchini tushunishga harakat qilish, voqealarga uning nigohi bilan qarash tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi. O‘quvchi erishgan kichik muvaffaqiyatlarni ham e’tirof etish muhimdir. Amerikalik pedagog A. Dreer ta’kidlaganidek, yaxshi bajarilgan ish uchun berilgan samimiy rag‘bat bolaning keyingi faoliyatiga kuchli turtki bo‘ladi. Rag‘bat va ma’qullovchi munosabat faqat eng faol yoki iqtidorli o‘quvchilargagina emas, balki harakat qilayotgan barcha bolalarga nisbatan qo‘llanishi zarur. Ba’zan past o‘zlashtiruvchi o‘quvchiga bildirilgan kichikgina ishonch va maqtovdan ham uning butun munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonni ijodkorlikka undovchi asosiy omillardan biri — o‘z natijasini yaxshilashga bo‘lgan ichki intilishdir. O‘quvchi avvalgi yutug‘idan ham yaxshiroq natijaga erishishga harakat qilganda, unda o‘z ustida ishlash ehtiyoji shakllanadi. Ammo ayrim hollarda muvaffaqiyatga haddan tashqari berilish boshqa muhim maqsadlarni chetga surib qo‘yishi ham mumkin. Masalan, kompyuter o‘yinlari yoki virtual mashg‘ulotlarga ortiqcha berilib ketgan bolalarni boshqa foydali faoliyatlarga yo‘naltirish zarur bo‘ladi.

Shuni unutmaslik kerakki, agar rag‘batlantirishning hissiy ta’siri jazolashnikidan ustun bo‘lsa, o‘quvchida muvaffaqiyatga intilish kuchayadi. Aksincha, doimiy tanbeh va qo‘rquv asosidagi munosabat esa bolada muvaffaqiyatsizlikdan qochish kayfiyatini shakllantiradi. Natijada ayrim o‘quvchilar bilim olish uchun emas, balki koyish eshitmaslik yoki uyaltirilmaslik uchun o‘qishga odatlanib qoladi.

Pedagog faoliyatining ta’sirchanligini oshirish uchun hatto murakkab yoki zerikarli tuyulgan vazifalarni ham qiziqarli shaklda tashkil etish mumkin. Tajribali pedagoglar buning turli usullarini tavsiya etadilar. Masalan, ayrim bolalarda oddiy uy yumushlariga ham qiziqish uyg‘otish mumkin. Bir ayol bolaligini eslab shunday degan edi: “Onam yaxshi qiz bo‘lsam, menga idish-tovoq yuvishga ruxsat berardi”. Bola uchun oddiy ishning mukofot sifatida ko‘rsatilishi unda shu faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirgan.

O‘quvchilarning xatolariga ham to‘g‘ri yondashish katta ahamiyatga ega. Ba‘zan xato bolaning fikrlashi va izlanishiga yo‘l ochadi. Shu sababli o‘qituvchi xatoni faqat kamchilik sifatida emas, balki o‘rganish imkoniyati sifatida qabul qilishi kerak. “Qiziqarli fikr”, “Bu mulohaza o‘ylashga undaydi” kabi iboralar o‘quvchini erkin fikrlashga ruhlantiradi. O‘quvchi qilayotgan harakat qiyin emasligini his qilsa, topshiriqlarni bajarishga yanada ishonch bilan kirishadi.

Ba‘zan “kerak” degan talabchan yondashuv ham o‘z o‘rnida muhim rol o‘ynaydi. Biroq bu talab o‘quvchining shaxsiga mos va samimiy bo‘lishi lozim. Bola qiyinchilikni yengib o‘tganidan mamnun bo‘lishi, o‘zida matonat va mas’uliyatni his qilishi kerak. Shu bilan birga, tarbiya jarayonida qulay vaziyatlardan unumli foydalanish ham muhimdir. Ba‘zan hayotning o‘zi kutilmagan, ammo kuchli ta’sir qiluvchi tarbiyaviy imkoniyatlarni yaratadi.

Bunga Tom Soyer haqidagi mashhur voqeani misol qilish mumkin. Jazo sifatida devorni bo‘yash topshirilgan Tom bu ishni shunchalik qiziqarli ko‘rsatadiki, boshqa bolalar ham uni bajarishga havas qilib qoladilar. Natijada oddiy va zerikarli tuyulgan vazifa bolalar uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Bu misol insonni biror faoliyatga majburlashdan ko‘ra, unda qiziqish uyg‘otish ancha samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarbiyasi qiyin va o‘zlashtirish jarayonida psixologik qiyinchiliklarga uchragan o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar olib borish murakkab, ammo muhim jarayon hisoblanadi. Individual yondashuv, psixologik korreksiya va motivatsion mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ruhiy holatini yaxshilash hamda ularning ta’limdagi muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi, psixolog va otionalarning hamkorligi ushbu jarayonning samaradorligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Overstreet, H. A. 1925. Influencing human behavior. New York: W.W. Norton.
2. З.Кўзиев. «Синф раҳбари ишини ташкил этиш ва режалаштириш». Т., 1997 йил. 4.
3. Дреер А. Преподавание в средней школе США. –М., 1986. – С. 54.
4. Bakhtiyorovna I. K. Methodological Conditions for the Organization and Management of Working with Difficult and Idle Students //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 115-119.
5. Рустамова Г. Б. HISTORICAL-MYTHOLOGICAL BASES OF IMAGES ASSOCIATED WITH TREES IN FOLKLORE.